

**UDK: 657.471.1:655.3**

**MAHSULOT TANNARXINI BUYURTMALI KOSTING TIZIMI ASOSIDA  
HISOBLASH: NAZARIYA VA AMALIYOT**

**Xudaynazarova Dilnoza G'afurovna**

i.f.n., dotsent, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

**Eshqulov Azizbek Quvondiq o'g'li**

talaba, BH-324 guruh, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada mahsulot tannarxini buyurtmali costing (Job Order Costing) tizimi asosida hisoblashning nazariy asoslari va amaliy jihatlari o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida "YASAFI BOOKLAB" mas'uliyati cheklangan jamiyati misolida buyurtmali costing tizimining qo'llanilishi tahlil qilingan, xarajatlarni guruhlash mexanizmi va tannarxni shakllantirish jarayoni yoritilgan. Maqolada shuningdek, mavjud tizimning kamchiliklari aniqlanib, uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** buyurtmali costing, Job Order Costing, mahsulot tannarxi, to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar, bilvosita xarajatlar, boshqaruv hisobi, bosmaxona, ABC costing, xarajatlarni boshqarish.

**ABSTRACT**

This article examines the theoretical foundations and practical aspects of calculating product cost based on the Job Order Costing system. Using the example of "YASAFI BOOKLAB" LLC, the application of job order costing is analyzed, the mechanism of cost classification and cost formation process are described. The article also identifies shortcomings of the existing system and develops scientifically grounded proposals for its improvement.

**Keywords:** job order costing, product cost, direct materials, direct labor, manufacturing overhead, management accounting, printing house, ABC costing, cost management.

## **KIRISH**

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan mahsulot tannarxini to'g'ri hisoblash va uni samarali boshqarishga bog'liq. Ayniqsa, individual yoki kichik seriyali ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalarda xarajatlarni aniq buyurtmalar kesimida aks ettirish muhim boshqaruv vositasiga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishi sharoitida buyurtmali ishlab chiqarish modeliga asoslanadigan korxonalar soni ortib bormoqda. Bosmaxona, qurilish, dizayn, IT va boshqa sohalarda har bir mijoz buyurtmasi alohida texnologik va iqtisodiy jarayonni ifodalaydi. Bu esa xarajatlarni umumlashtirib hisoblaydigan an'anaviy usullar o'rniga buyurtmali costing (Job Order Costing) tizimini joriy etishni zaruriy qiladi.

Tadqiqotning maqsadi — buyurtmali costing tizimining nazariy asoslarini ochib berish hamda "YASAFI BOOKLAB" MChJ misolida uning amaliy qo'llanilishini tahlil qilish va takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Buyurtmali costing tizimiga oid ilmiy izlanishlar xalqaro boshqaruv hisobi adabiyotlarida keng yoritilgan. C. Horngren va S. Datar (2021) ushbu tizimni xarajatlarni aniq buyurtmalar kesimida identifikatsiya qilish imkonini beruvchi eng samarali usullardan biri deb ta'riflaydi. K. Drury (2018) esa buyurtmali costing va jarayonli costing o'rtasidagi farqlarni ishlab chiqarish turiga bog'liq holda asoslab beradi.

O'zbek iqtisodchilaridan S.N. Toshmatov va boshqalar (2019), shuningdek B.F. Boronov (2020) ning tadqiqotlari milliy buxgalteriya hisobi standartlari (BHMS) doirasida

tannarxni hisoblash metodologiyasini yoritgan. Jumladan, 1-son, 4-son BHMS larda ishlab chiqarish xarajatlarini tasniflash va tannarx shakllanishining uslubiy asoslari belgilangan.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: taqqoslash, iqtisodiy tahlil, guruhlash, umumlashtirish hamda hisob-kitob usullari. Manbalar sifatida O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari, BHMS lar, xalqaro darsliklar va "YASAFI BOOKLAB" MChJ ning tashkiliy ma'lumotlari tahlil qilindi.

## **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

### **Buyurtmali kosting tizimining mohiyati**

Buyurtmali kosting tizimida har bir buyurtma alohida hisob obyektida qaraladi. Ishlab chiqarish xarajatlari uch asosiy guruhga ajratiladi: to'g'ridan-to'g'ri moddiy xarajatlari (DM), to'g'ridan-to'g'ri mehnat xarajatlari (DL) va bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari (MOH). Tannarx quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\mathbf{Tannarx = DM + DL + MOH}$$

Mazkur tizim xarajatlarni umumlashtirib o'rtacha hisoblash o'rniga har bir buyurtma bo'yicha real tannarxni aniqlash imkonini beradi. Bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, narx belgilashda va rentabellikni baholashda asosiy axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

### **"YASAFI BOOKLAB" MChJ tavsifi va buyurtmali kosting talabi**

"YASAFI BOOKLAB" mas'uliyati cheklangan jamiyati 2025-yil 23-aprelda Samarqand viloyatida ro'yxatdan o'tgan bo'lib, bosmaxona va nashriyot xizmatlari sohasida faoliyat yuritadi. Korxonada kitob, katalog, broshyura va boshqa bosma mahsulotlarni individual buyurtmalar asosida ishlab chiqaradi. Har bir buyurtma o'zining hajmi, dizayni, materiallari va texnologik jarayoni bilan farqlanadi.

Korxonada ishlab chiqarish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat: (1) buyurtmani qabul qilish va texnik topshiriqni shakllantirish; (2) dizayn va maketlash ishlari; (3) bosma jarayoni; (4) qayta ishlash va yakuniy ishlov berish; (5) tayyor mahsulotni topshirish. Har

bir bosqichda turlicha hajmda xarajatlar yuzaga keladi, bu esa ularni umumiy emas, balki buyurtma kesimida hisobga olishni talab qiladi.

**1-jadval. "YASAFI BOOKLAB" MChJning asosiy tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlari**

<b>Ko'rsatkich</b>	<b>Tavsifi</b>	<b>Kosting tizimiga ta'siri</b>
Faoliyat turi	Bosmaxona va nashriyot xizmatlari	Individual costing zarur
Ishlab chiqarish shakli	Buyurtma asosida	Job Order Costing qo'llaniladi
Mahsulot xususiyati	Har bir buyurtma o'ziga xos	Xarajatlar buyurtma kesimida hisoblanadi
Moddiy xarajatlar	Qog'oz, siyoh, materiallar	Bevosita xarajat sifatida biriktiriladi
Mehnat xarajatlari	Dizayner, operator mehnati	To'g'ridan-to'g'ri xarajat
Bilvosita xarajatlar	Elektr, amortizatsiya	MOH sifatida taqsimlanadi

**Tannarx hisob-kitobi va tahlil**

Korxonada buyurtmali costing tizimi bo'yicha 1 000 dona kitob chop etish buyurtmasi misolida tannarx shakllanishini ko'rib chiqamiz. Quyidagi jadvalda xarajatlarning taqsimlanishi va ulushi ko'rsatilgan:

**2-jadval. Buyurtma bo'yicha xarajatlar hisob-kitobi (1 000 dona kitob)**

№	Xarajat turi	Miqdor (so'm)	Ulushi (%)
1	Moddiy xarajatlari (DM)	8 000 000	61,5%
2	Mehnat xarajatlari (DL)	3 000 000	23,1%
3	Bilvosita xarajatlari (MOH)	2 000 000	15,4%
	Jami tannarx	13 000 000	100%
	1 dona mahsulot tannarxi	13 000	—

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, moddiy xarajatlari umumiy tannarxning 61,5 foizini tashkil etadi. Bu bosmaxona faoliyatining xomashyoga yo'naltirilgan xarakterini aks ettiradi. Mehnat xarajatlari 23,1 foiz, bilvosita xarajatlari esa 15,4 foizni tashkil etadi.

Bilvosita xarajatlarni taqsimlash uchun oldindan belgilangan stavkadan foydalaniladi:

$$MOH \text{ stavkasi} = 2\,000\,000 / 1\,000 \text{ dona} = 2\,000 \text{ so'm/dona}$$

### **Buyurtmali kosting tizimidagi muammolar va takomillashtirish yo'nalishlari**

Tadqiqot natijasida "YASAFI BOOKLAB" MChJda buyurtmali kosting tizimining amaliy qo'llanilishida bir qator muammolar aniqlandi. Birinchidan, moddiy xarajatlarning yuqori ulushi korxonani tashqi omillar — xomashyo narxining o'zgarishiga sezgir qiladi. Ikkinchidan, bilvosita xarajatlarni taqsimlashda an'anaviy bir-o'lchovli yondashuv qo'llanilishi tannarxning aniqligini cheklaydi. Uchinchidan, hisob jarayonlarining qisman qo'lda yuritilishi xatolik ehtimolini oshiradi.

### 3-jadval. Buyurtmali kosting tizimini takomillashtirish yo'nalishlari

Muammo	Takomillashtirish yo'li	Kutilayotgan natija
Moddiy xarajatlar yuqori (61,5%)	Materiallar normativlarini joriy etish, mahalliy yetkazib beruvchilar bilan ishlash	Xarajatlar 5–8% kamayadi
Bilvosita xarajatlar noaniq taqsimlangan	ABC costing (faoliyatga asoslangan) elementlarini joriy etish	Tannarx aniqligi oshadi
Hisob jarayoni qo'lda	ERP / 1C axborot tizimlarini joriy etish	Xatolik kamayadi, tezlik oshadi
Buyurtma rentabelligi tahlil qilinmaydi	Har buyurtma bo'yicha ROI tahlilini joriy etish	Zararli buyurtmalar kamayadi

Taklif etilayotgan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali korxonada tannarxini 10–15 foizga kamaytirish va foyda darajasini oshirish mumkin. Xususan, ABC costing elementlarini joriy etish bilvosita xarajatlarning bir necha taqsimlash bazasi orqali aniqroq aks ettirilishiga olib keladi. Bu esa ayrim buyurtmalar bo'yicha ortiqcha yoki kam baholangan tannarx holatlarini bartaraf etadi.

#### **XULOSA**

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Buyurtmali kosting tizimi individual va kichik seriyali ishlab chiqarish, jumladan bosmaxona va nashriyot sohasida eng maqbul xarajat hisoblash usuli hisoblanadi. Ushbu

tizim xarajatlarni umumlashtirish emas, balki ularni aniq buyurtmalar kesimida boshqarish imkonini beradi.

2. "YASAFI BOOKLAB" MChJ faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari — har bir buyurtmaning individual parametrlari, xomashyo sarfining farqlanishi va mehnat resurslarining turlicha jalb etilishi — buyurtmali costing tizimini qo'llashni iqtisodiy jihatdan to'liq asoslaydi.

3. Tannarx tarkibida moddiy xarajatlar 61,5%, mehnat xarajatlari 23,1%, bilvosita xarajatlar 15,4% ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar xarajatlarni boshqarish tizimida moddiy resurslarni optimallashtirish va bilvosita xarajatlarni aniqroq taqsimlashga e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

4. Mavjud tizimni takomillashtirish uchun: (a) materiallar sarfi normativlarini joriy etish; (b) ABC costing elementlaridan foydalanish; (c) hisob jarayonlarini avtomatlashtirish (1C/ERP); (d) har bir buyurtma bo'yicha rentabellikni tahlil qilish tizimlari joriy etish tavsiya etiladi.

Mazkur takliflarni amaliyotga joriy etish "YASAFI BOOKLAB" MChJda mahsulot tannarxini kamaytirish, moliyaviy natijalarni yaxshilash va korxonaning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. — 2016-yil 13-aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining 1-son Milliy Standarti "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati". — 2024.
3. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining 4-son Milliy Standarti "Tovar-moddiy zahiralar".
4. Boronov B.F. Korxonalar moliyaviy aktivlari hisobi va hisobotini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish. — Samarqand, 2020.
5. Drury C. Management and Cost Accounting. — London: Cengage Learning, 2018.

6. Horngren C.T., Datar S.M., Rajan M.V. Cost Accounting: A Managerial Emphasis. 17th ed. — Pearson, 2021.
7. Toshmatov N., Ismanov I., Buzurkhanov S. Moliyaviy hisob va hisobot. — T.: "Sano-standart", 2019.
8. Garrison R., Noreen E., Brewer P. Managerial Accounting. — McGraw-Hill, 2020.
9. <https://lex.uz> — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi.